Julusiya qasidalar. Bular sultonlarning taxtga o'tirganini nishonlash uchun yozilgan qasidalardir.

2. Vasf qasidalar:

Qasidai bahoriya. Nasib yoki tasbib qismida tabiatda bahor kelishi va bahor bilan kechgan hayajon ifodalangan.

Qasidai xazoniya. Bular nasib bobida kuz tasvirlari keng qo'llanilgan qasidalardir.

Qasidai holiya. Bunday qasidalarda muallif o'z ahvolini shikoyat motivlari orqali badiiy talqin qiladi.

Qasidai hamriya. May tasviri bilan bog'liq qasidalar.

Ramazoniya qasidalar. Bular "Ramazon" fayz-u barakotini kuylashga qaratilgan qasidalardir.

Bayram qasidalar. Bu bayramlar haqidagi qasidalardir.

Yuqoridagi tasniflardan ko'rinib turibdiki, qasida ma'lum bir maqsad va yo'nalish asoslangan janr sanaladi. XI-XII asrlarga kelib uning mavzu doirasi yanada kengaydi. Qasidalar falsafiy, axloqiy, ijtimoiy mavzularda ham yozila boshlangan. Dastlab arab adabiyotida paydo bo'lgan mazkur janr keyinchalik fors-tojik, keyin turkiy adabiyotga kirib kelgan.

Ta'kidlash kerakki, islomdan oldin ham arab adabiyotida ham qasidalar mavjud bo'lgan. Islomgacha bo'lgan arab qasidalarining ichki tuzilishi va mazmuni, shoirlarning hayoti va shaxsiy kechinmalari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Dastlabki qasidalar ishqiy mavzuda bo'lgan. Shoir o'zi kabi ko'chmanchi hayot kechiruvchi sevgilisini chodiriga kelib, dastlab, o'zining mahzun kunlarini eslaydi. Qasida dastlab ma'shuqasining yashash maskani ta'riflashdan boshlagan.

I.M.Filshtinskiyning ta'kidlashicha, islomgacha bo'lgan davr shoirlari orasida al-Asha (Abu al-Xasan al-Ash'ariy) (629 yilda vafot etgan) qasidalari mashhur bo'lgan. Uning qasidalari

oddiy elementlardan tortib dasturxon ustidagi ko'ngilxushliklar, mayni ulug'lash kabi elementlarga boy bo'lgan bo'lsa, al-Xutey'a qasidalarini shafqatsiz hajvdan iborat bo'lib, hattoki nasib qismida ham bu holat sezib turgan. Xususan, bir qasidasining nasib qismida u bolasidan ayrilgan ona tuya iztiroblari tasvirini beradi.[4]

Al-Xutey'a (Abu al-Xutay'a) arab adabiyotida mashhur shoirlardan biri bo'lib, u VII asrda yashagan. U, asosan, satirik mavzularda qasidalar bitgan. Al-Xutey'aning satirik qasidalarida jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy kamchiliklarga, odamlarning xulq-atvorlariga tanqidiy munosabat bildirgan.

Islom davrida bu janr, yangi diniy va madaniy muhitda o'zgartirishlarga uchragan. Qasida, ko'pincha, hayotning turli yo'nalishlarini, jumladan, ilohiy, ijtimoiy va siyosiy mavzularni qamrab ola boshlagan. Arab adabiyotida qasidalarining ilk namunalari V asr o'rtalarida Arabistonning sharqida Bakr va Tag'lib qabilalari orasida rivojlanganligi manbalarda ta'qidlanadi.[5]

Arabshunos olim I.M. Filshtinskiyning qayd etishicha, arab adabiyotida qasida janrining asoschisi Imruulqaysdir.[6] Imruulqaysning qasidalarini, u yozgan mavzular, obrazlar va uslubi bilan arab adabiyotida muhim o'rin tutgan. Imruulqaysning ijodi keyingi shoirlarga ta'sir ko'rsatgan va qasida janrining rivojlanishiga asos solgan.

Islom mintaqa adabiyotida qasida janrining rivojlanishi bilan ilohiy mavzularga keng o'rin berila boshlandi. Shoirlar Alloh va Payg'ambar haqidagi so'zlarni, ularning fazilatlarini, mo'minlarning vazifalari va axloqiy qadriyatlarini targ'ib qilish uchun qasidalar yozganlar va natijada qasidalarining mavzu doirasi kengaya boshlagan. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning ta'limotlari va Allohga bo'lgan muhabbat hamd qasidalarida alohida aks etgan. Hamd qasidalarida Allohning ne'matlari, ulug'ligi va insonlarga bo'lgan rahmati badiiy talqin qilingan. Bu janrdagi qasidalar, odatda ma'naviy, axloqiy va estetik mazmunga ega bo'lgan. Na't qasidalarida Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning hayotlari, fazilatlarini, xulqi, axloqi, insonlarga bo'lgan munosabatlari, Alloh dargohida mavqelari xususidagi fikrlar badiiy talqin qilingan. Mana shunday na't qasidalar mualliflaridan biri Al-Busiriydir. Busiriyning deyarli barcha asarlari nazmda bo'lib, aksariyati Muhammad (s.a.v.) haqida yozilgan qasidalar iborat. Tuzilish va uslub jihatidan nihoyatda go'zal bo'lgan shoir asarlari o'z davridayoq zamondoshlari tomonidan tan olingan. Ayniqsa, uning "Qasidai burda" asari payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning samimiy oshig'i Al-Busiriyni shon-shuhrat cho'qqisiga olib chiqqan. U umrining oxirida shol bo'lib qolgan. Mazkur qasida ham shu davrda yaratilgan. Qasidaning umumiy hajmi 160 baytdan iborat bo'lgan[7]. Al-Busiriyning bu asari arab adabiyotida na't qasidalarining klassik namunasi hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Ta'kidlash kerakki, Rasuli Akramning "burda"lariga bag'ishlab turli ijodkorlar qasidalar yaratganlar. Mana shulardan yana biri Kaab ibn Zuhayrdir. U ham arab adabiyotidagi eng mashhur shoirlardan biri bo'lgan. Kaab ibn Zuhayrning ham "Qasidai Burda" nomli qasidasi mashhur bo'lgan. Qasida nomidagi "burda" so'zi "yo'l-yo'l matodan tikilgan ustki kiyim" ma'nosini anglatgan. Rivoyatlarda ta'kidlanishicha, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) shol bo'lgan bemorning ustiga o'z burdalarini tashlaganda, u darddan forig' bo'lgan ekan. Demak, shu nomdagi qasidalarining yaratilishiga bevosita mana shu rivoyat asos bo'lgan.

Arabshunos olim I.M. Filshtinskiyning Ta'kidlashicha, musulmonlar qasidaning ayrim parchalarini o'zlari bilan tumor qilib olib yurganlar. Manbalarda ta'kidlanishicha, Kaab ibn Zuhayr o'z qasidasida dastlab Muhammad (s.a.v.)ni e'tirof qilmagan, hatto u bilan urishib,

yarador bo'lib kasallangan. Kasallikdan forig' bo'lmagach, Kaab ibn Zuhayr akasining maslahati bilan "Suaod meni tashlab ketdi" deb boshlanuvchi qasidasini yozib, payg'ambarimizga taqdim qiladi. Mazkur qasida Rasuli Akramga ma'qul tushadi va shoirga o'z burdasi (to'ni)ni sovg'a qiladi.[8] Aytishlaricha, Kaab ibn Zuhayr shundan so'ng kasallikdan qutiladi. Shundan so'ng mazkur qasida islom dunyosida "Qasidai burda" nomi bilan shuhrat topadi. Ushbu qasida Islom madaniyatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ko'plab shoirlar va ijodkorlar mazkur asarga sharhlar yozganlar. "Suriyalik arab tadqiqotchisi Abdul Ol Hamomisiyning "Busiriy Payg'ambari madh etgan eng buyuk shoir" nomli risolasida bergan ta'rifiga ko'ra: "Agar Payg'ambarimiz madh etilgan yuzlab qasidalarini birma-bir ko'rib chiqsak, shak-shubhasiz, madh uslubida cheksiz mehr-muhabbat va komil imon bilan arab she'riyatiga xos iqtidor bilan san'at darajasiga yetkazib ijod etilgan quyidagi uch buyuk qasidani ko'rsatish mumkin:

Birinchisi – ilk Islom davrida (milodiy VII asr) Ka'b ibn Zuhayrning Rasululloh huzurida tarannum qilib aytgan – "Bonat Su'odu", ya'ni, "Suod uzoqlashdi" deb boshlanadigan qasidasi;

Ikkinchisi – Islomning o'rta asri (hijriy VII asr yoki milodiy VIII asr)da bitilgan Busiriyning – "Al-kavokibud-durriyya fiy madhi xoyril-bariyya" – ya'ni, "Yaralmish jonzotlarning eng yaxshisini madh etuvchi porloq yulduzlar" nomli qasidasi;

Uchinchisi – shoir Ahmad Shavqiyning (1868 – 1932) – "Nahjul burda" ya'ni, "Burda izidan" nomli qasidasi".[9]

Ilk musulmon qasidago'y shoirlardan yana biri Hasson ibn Sobitdir. U Madinada tug'ilgan. U Payg'ambar Muhammadning zamonida yashagan. Manbalarda ta'kidlanishicha, u Muhammad (s.a.v) bilan juda yaqin munosabatda bo'lgan. Shuning uchun uning ijodida payg'ambarimizga bo'lgan muhabbat va ehtirom yaqqol ko'rib turgan. Bundan tashqari, uning qasidalarida shaxsiy kechinmalar bilan birga jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy masalalar qamrab olingan. "Uning qasidalarini kompozitsiyasi badaviy shoirlarnikidan bir oz farq qiladi. Hasson qasidalarining o'ziga xos jihati shundaki, nasib qismini qisqartirib, «buni qo'ya turaylik» iborasi yordamida asosiy mavzuga o'tib qo'ya qolgan. Bu holat uning qasidalariga ulug'vorlik va mantiqiylik baxsh etgan. Shoir qasidalarining falsafiy va axloqiy g'oyalarida poklanish, gunohlari uchun javobgarlik, hayot mazmunini yangicha tushunish kabi islom dini ta'siri kuzatiladi.[10]

VIII asr o'rtasidan IX asr birinchi choragiga qadar bo'lgan davr arab tanqidchiligida "yangilanish" (ar.bade') davri bo'lgan. Mazkur davr shoirlari qadim arab she'riyatining eski an'analaridan voz kechib, arab adabiyotini zamonaviy mazmun bilan boyitdilar. Mamlakatning faol madaniy va siyosiy hayotiga xalifalikning barcha xalqlari (birinchi navbatda forslar) sho'ng'ib, arab madaniyati va kundalik turmushiga ta'sir o'tkaza boshlashdi. Oldingi davrda faqatgina tor doiradagi arab aristokratiyasiga xos bo'lgan adabiyot endi xalifalikning barcha aholisi uchun tegishli bo'ldi. Albatta, o'sib borayotgan Bag'dod va Basra kabi ulkan shaharlar aholisi uchun tor doirada rivojlangan qadim arab qasidalarini she'riy tuzilishlari obraz va mavzusi begona edi.[11]

VIII asr o'rtasidan IX asr boshlarigacha bo'lgan arab adabiyotining rivojlanishida Bashshar ibn Burd va Abu Nuvasning o'rni katta bo'lgan. Bashshar ibn Burd (umumiy 714-784 yillar) Eronning Kufasida tug'ilgan. Bashshar ibn Burd Kufa va Bag'dodda faoliyat yuritgan. U o'z ijodi bilan arab she'riyatiga yangi, xususan, muhabbat, tabiat va inson mavzularini olib kirgan.Uning ijodi islom davridagi ijodkorlar orasida alohida shuhrat topgan.

Abu Nuvas (756-814) ham Eronda tug'ilgan. U Bag'dodda yashagan va ijod qilgan. U o'z ijodi bilan arab adabiyotidagi yangi tendensiyalarni olib kirgan. Shoir qasidalarida shodlik va muhabbat mavzulari yetakchilik qilgan. Ayniqsa, uning "Qasidat al-sharob" qasidasida may va shodlik mavzusi kuylangan.

Bashshar ibn Burd va Abu Nuvasning ijodi keyingi asrlarda arab adabiyotidagi she'riyatni rivojlantirishda katta ta'sir ko'rsatdi. Ularning ijodi ko'plab shoirlarga maktab bo'lib xizmat qilib. Ularning ijodi arab adabiyotidagi ijodiy muhitni o'zgartirdi, an'anaviy mavzular bilan birga yangi mavzularga murojaat qilindi. "Bu davr shoirlari arab adabiyoti tarixida ilk bor mumtoz qasida qoidalaridan voz kechib, zamondoshlari hayoti va hissiyotini tasvirlashga kirishildi. Buning uchun yangi shakllar, yangi turlar va oddiy she'riy tuzilishlarni qo'llay boshlashdi. Ya'ni, qasidadan boshqa janrlar ham ajralib chiqqa boshladi".[12]

Ta'kidlash kerakki, barcha davrlarda adabiyot ijtimoiy-siyosiy hayotning in'ikosi sifatida jamiyat muammolarni badiiy talqin qilishda faol san'ati turi sifatida xizmat qilib kelgan. Buni arab adabiyoti misolida ham kuzatishimiz mumkin. Arab xalifaligining Ummaviylar va Abbosiylar sulolalari davridagi siyosat ko'pincha hokimiyatni saqlashga xizmat qilgan. Natijada jamiyatda ijtimoiy adolatsizlik hukm surgan. Adabiyotda vujudga kelgan sufiylik oqimi esa shubhasiz, ummaviylar va abbosiylar davridagi siyosiy muhitga nisbatan norozilikni ifodalagan va jamiyatda ma'naviy o'zgarishlarni targ'ib qilgan. So'fiy shoirlar o'z g'oyalarini tarqatish uchun she'riyatdan vosita sifatida foydalanganlar. Ular o'z asarlarida ilohiy muhabbat, ruhiy kamolot va adolatni targ'ib qilganlar. So'fiy shoirlar o'z she'rlarida ko'pincha ramzlar foydalandilar. Bu esa fikrni yashirish va ijtimoiy tanqidni ifodalash uchun qulay vosita edi.

So'fiy shayxlar majlislarda she'riy suhbatlarga ko'proq e'tibor berila boshlangan. Bunday suhbatlarda turli janrdagi adabiy asarlardan o'qilgan. "Ana shunday suhbatlar uchun mo'ljallangan adabiy asarlar orasida qasida ham o'z o'rnini topdi. Bu holat, ayniqsa, falsafiy qasidalarning shakllanishiga turtki bo'ldi. Keyinchalik u Eron, O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindistonga ham tarqala boshladi".[13]

Muhokama. Arab adabiyotida falsafiy-orifona qasidalarning paydo bo'lishi Abul Ataxiya (Abu at-Taxiyya) nomi bilan bog'liq. "U arab adabiyotining mashhur shoirlaridan biri bo'lib, u 747-825-yillarda yashagan. U Abbosiy xalifalar Al-Mahdiy va Xorun ar-Rashid saroyida hukm surayotgan adolatsizliklardan ozor chekib, uzlatga chekingan darvesh bo'lib, saroy an'alarini tanqid qilgan qasidalar yozgan. Uning qasidalari har qanday ko'rinishdagi ulug'vorlik, tantanavorlik, tilyog'lamalik va sun'iylikdan xolidir. Shoir boshqa shoirlarning g'azabini keltirishi mumkinligiga qaramay, an'anaviy she'riy tuzilishlarni buzib, o'zini barcha tuzilishlardan ustun hisoblagan".[14]

Abu Al-Ala Ahmad bin Abdulloh ibn Sulaymon bin Muhammad Al-Qudai Al-Tanuxi Al-Maarriy (Al-Maarriy) nomi bilan mashhur bo'lgan shoir, mutafakkir, tilshunos va faylasuf (973-1057) arab adabiyotining eng mashhur namoyandalardan biri hisoblanadi. Iroqning Kufa shahrida tug'ilgan. U o'z davridagi ilg'or bilimlarga ega bo'lgan, arab tili, adabiyot, falsafa va tarixni yaxshi o'zlashtirgan.[15]

Al-Maarriyning ko'zi tug'ma ojiz bo'lgan. Biroq uning aql-u idrok ko'zi — qalb qo'zi ochiq bo'lgan. Shuning uchun u jamiyatdagi adolatsizliklar, insonlar orasidagi tengsizlik, munofiqliklarni "qalb ko'zi" bilan ko'rib idrok qiladi. Shu bois, uning asarlarida davrning muhim muammolari ayovsiz tanqid qilingan.[16] "Beruniyning zamondoshi bo'lgan Abulalo, –deb yozgan edi akademik I.Yu.Krachkovskiy, –tafakkurining erkinligi, fikrining mustaqilligi, hayotda

ko'rsatgan jonbozligi jihatidan xivalik ulug' astranomdan qolishmasa kerak. Albatta, uning dunyoni ko'rish doirasi birmuncha torroq edi... U azob-uqubat bilan o'tgan uzun umrini inson hayotining oliy masalalari ustida jiddiy mulohaza va tafakkur bilan o'tkazdi".[17]

Al-Maarriyning qasidalarida falsafiy mavzular, jumladan, insonning ma'naviy kamoloti, hayotning ma'nosi, taqdir va iroda, va ilohiy haqiqatlar bilan bog'liq mavzular badiiy talqin qilingan. Jumladan, "Qasidat al-nafs" nomli qasidasida muallif insonning kamoloti, ruh va nafs o'rtasidagi kurash haqida fikr yuritadi.

"Asta-sekin shahar madaniyati rivojlanishi bilan jamiyatda adabiyotga nisbatan munosabat ham o'zgarib bordi. Ungacha arab hukmdorlari saroyida haqiqatni yashirib, faqatgina shohni madh etgan ijodkorlar shoir deb atalgan. Inson va atrof-muhitga nisbatan munosabat o'zgarishi bilan yangi adabiyot, tanqidiy adabiyot yuzaga keldi".[18]

Arab she'riyatida paydo bo'lgan qasida janri fors-tojik she'riyatida ham keng tarqalgan an'anaviy she'riy janr hisoblanadi. "Qasida arab adabiyotining qadimiy shakllaridan bo'lib, arab badaviy adabiyotining islomgacha bo'lgan johiliya davridayoq mustaqil she'riy janr sifatida shakllangan va keyinchalik islom madaniyatining bir qator mamlakatlarda tarqalgan, jumladan, u adabiyotining yetakchi janri sifatida forsiy tildagi adabiyotga ham katta ta'sir ko'rsatgan va o'zi rivojlanib sayqal topgan".[19]

Fors-tojik adabiyotida qasida janrining shakllanish davri xususida mulohaza yuritgan akademik A. Mirzoyev X-XI asrlarni fors-tojik adabiyotida "qasida davri" bo'lganligini ta'kidlaydi.[20] Ta'kidlash kerakki, bu janrning fors-tojik adabiyotida shakllanishiga sabab bo'lgan asosiy omillardan biri ijtimoiy-siyosiy hayot edi. Boisi, X asrlarda somoniylar sulolasiga asos solindi. Somoniylar davlatini tashkil etgan markazlashgan hokimiyat ijodkorlar va shoirlar uchun qulay muhit yaratdi. Somoniylar o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun madh qasidalaridan foydalanishga harakat qilganlar. Bu janr, o'zining maqtov va ko'tarinki ruhdagi tabiati bilan hokimiyatni qo'llab-quvvatlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan.

Somoniylar davrida ko'plab nomdor shoirlar madh qasidalarini yozib, o'z ijodlari orqali hokimiyatni maqtaganlar. Ularning asarlari siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, davlatning obro'sini oshirishga xizmat qilgan. Fors-tojik adabiyotida madh janrining rivojlanishi, uning an'anaviy shakllari va tuzilishi, shunchaki estetik maqsadlarga emas, balki siyosiy maqsadlarga ham xizmat qildi. "X-XI asrlarda adabiyot, asosan, saroy atrofida rivojlanib, she'riyatda qasida yetakchi janr bo'lib keldi. Chunki dunyoviy adabiyot vakili o'z ijodida, birinchi navbatda, mamduhga, ya'ni jamiyatdagi hukmron guruhlar vakiliga (u podshohmi, vazirmi yoki yirik mulk egasimi, qati nazar) tayanadi, doston yozadimi, qasida yozadimi, muayyan shaxsga bag'ishlaydi, undan in'om yoki e'tirof kutadi. Mavjud materiallardan kelib chiqqanda XI asr qasidaları X asrga nisbatan ham mavzu doirasi kengayib, ham shaklan rang-baranglashib ham mazmunan boyib borganligini kuzatish mumkin".[21]

Madh qasidalaridagi oliy maqtovlar, xususan, hukmdorlarga nisbatan, ularning hokimiyatini mustahkamlash uchun muhim vosita bo'ldi. Natijada "X-XII asrga kelib qasida fors-tojik adabiyotida ham asosiy janrga aylana borib, qasidanavis shoirlarning safi ham kengaya bordi. Fors adabiyotida birinchi qasidaning muallifi sifatida Abbos Marvaziy qayd qilinadi".[22] Shu davrda yashab ijod qilgan shoirlar ijodiga e'tibor qilinsa, qasida eng faol janr ekanligi ko'zga tashlanadi. Sohibdevon bo'lgan shoirlar devonining katta qismini qasidalar tashkil qilgan. Jumladan, Unsuriy devonida 64 ta, Farruxiy devoni 213 ta, Manuchexriy devonidan 57 qasida o'rin olganligi fikrimizni tasdiqlaydi.[23]

Arab adabiyotida bo'lgani singari XII asr boshlab boshlab fors –tojik she'riyatida ham falsafiy-tasavvuf mavzudagi qasidalar yaratila boshlandi. Bunga misol qilib Sanoiyning falsafiy-irfoniy mavzulardagi qasidalarini sanash mumkin. Sanoiyning “Tasbih at-tuyur” nomli ramziy – irfoniy qasidasi ustida tadqiqot olib borgan olim M.L.Reysnerning ta'kidicha, qasida uchun Qur'oni karimning “Nur” surasidagi 41-oyatida asos bo'lgan: “(Ey, Muhammad!) Allohga osmonlar va yerdagi bor jonzot, saf tortgan qushlar ham tasbeh ayishlarini ko'rmadingizmi? Har biri o'z duo va tasbehini bilur. Alloh esa ularning qilayotgan (barcha) ishlarini biluvchidir” ilohi kalomga asoslangandir.[24] Qasidada ramziy – majoziy ma'no qushlar va ularning sayrashi orqali badiiy talqin qilingan.

Sanoiy boshlab bergan falsafiy-irfoniy mavzulardagi qasidalar XII asrda Anvari va Xoqoniylar tomonidan davom ettirildi va rivojlantirildi.

Somoniylar davri adabiyotining rivojida fors-tojik mumtoz adabiyoti asoschisi Abu Abdullo Ja'far ibn Muhammad Rudakiy alohida o'rni bor. Uning Sharq adabiyotida qasida janrining takomilida alohida xizmatlari bor. Uning “Shikoyat az piri” (“Qarilikdan shikoyat”), “Bo'yi jo'yi Mo'liyon” hamda “Modari may” qasida mashhur bo'lgan. “Shikoyat az piri” (“Keksalikdan shikoyat”) qasidasi holiya, “Modari may” (“May onasi”) qasidasi mavzuyiga ko'ra xamriya qasidalaridir.[25]

“Shikoyat az piri” qasidasi hasbi hol tarzida bitilgan bo'lib, muallif unda o'z ahvolini bayon qiladi. Qasidada shoirning tarjimai holiga doir fikrlar bilan birga, muallifning falsafiy qarashlari ham o'z ifodasini topgan. Rudakiy inson umrining o'tkinchiligi, hayotning g'animatligi, uning qadriga yetish va xayrli ishlarga sarf qilish lozimligi haqidagi pand-nasihatlarini ham qasidaga singdirib yuboradi.

Fors –tojik adabiyotida qasida janrining shakllanishi XIII asrga to'g'ri keladi. Mavlono Rumiyning 300ga yaqin qasidasi bo'lganligi manbalarda qayd qilinadi. Bular shoirning tavhid va munajat janrida yozilgan she'rlaridir.[26]

Fors – tojik adabiyotida qasida janrining takomili bevosita Nosir Xisrav nomi bilan bog'liq. Nosir Xisravdan juda katta ma'naviy meros qolgan bo'lib, ular fors va arab tillarida ikkita she'rlar devon, “Safarnoma”, “Saodatnoma”, “Ro'shnoinoma”, “Jome' al-hikmatayn”, “Kushoish va rahoish”, “Vajhi din”, “Zod ul-musofirin” singari badiiy asarlar hamda qasidalardan iborat.

Ta'kidlash kerakki, Nosir Xisravga qadar yaratilgan qasidalarda madh-maqtov ustun bo'lgan bo'lsa, shoir qasidalarida ta'limiy-ma'rifiy mavzular yetakchilik qilgan. U o'z qasidalarida bilim va ma'rifatga katta ahamiyat bergan. U bilimning inson hayotidagi ahamiyati, ma'rifatsizlikning salbiy oqibatlarini haqida yozgan. Bu, o'z navbatida, uning davridagi ijtimoiy va madaniy muammolarni tanqid qilishga yo'naltirilgan.

Nosir Xisrav qasidalarini mavzu jihatida quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Hasbi hol, taqdirdan shikoyat va sarguzasht mavzusidagi qasidalar.
2. Ilm-ma'rifat, so'z, qalam ta'rifi hamda islomiy ahkomlar targ'ibiga doir qasidalar.
3. Zamon illatlari fosh qilingan, zulm-zo'rlik tanqid etilgan ijtimoiy-falsafiy ruhdagi qasidalar.[27]

Xulosa. Umuman olganda, Nosir Xisravning qasidalarini uning ijodining muhim qismi bo'lib, ularda diniy, ijtimoiy va falsafiy mavzular keng qamrab olingan.

XIII-XIV asrlarda forsiy she'riyatda qasidaning shakli va mazmunida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Bu o'zgarishlar nafaqat qasidalar mavzusiga tegishli, balki, mazkur

janrning ritm va qofiyasini murakkablashtirishga intilishda ham kuzatildi. Buni Salmoni Sovajiy (1300-1368) qasidalarida ham ko'rishimiz mumkin. U "masnu' qasida"larni yaratdi. Bunday qasidalarda ijodkor butun mahoratini ishga solib, ko'p san'atlardan mohirona foydalanadi. Shu bilan birga "masnu' qasida"larda ko'p ma'nolilik, ya'ni bir necha ma'noda tushunish mumkin bo'lgan ifodalardan foydalanish ko'zga tashlanadi.

Umuman olganda, arab she'riyatida ilk lirik janr sifatida shakllangan qasida boshqa janrlar uchun asos bo'lib xizmat qildi. Mazkur janr fors-tojik adabiyotida o'ziga xos taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Qasidalarning mavzu doirasi kengaydi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. - М.: 1958, стр. 821-822.
2. Ўзбек классик шеърияти жанрлари. -Т.: Ўқитувчи, 1979. 129- б.
3. Ўзбек классик шеърияти жанрлари. -Т.: Ўқитувчи, 1979. 129-б.
4. Фильштинский М. Арабская классическая литература. -М.: Наука, 1965. С. 59-60.
5. Yaşar AYDEMİR. Türk Edebiyatında Kaside.
<https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/234687>
6. Фильштинский М. Арабская классическая литература. -М.: Наука, 1965. С30 -33.
7. <https://islamansiklopedisi.org.tr/busiri-muhammed-b-said>
8. Ханна ал Фахурий. История арабской литературы. Г.И., изд. иностр. лит. -М.: 1959. С. 176.
9. Омонulloҳ Тўхтаохунд ўғли. Бобур фаҳмидаги "Қасидаи бурда". <https://www.e-adabiyot.uz/maqola/1253>
10. Фильштинский М. Арабская классическая литература. -М.: Наука, 1965. С. 77-79].
11. Фильштинский М. Арабская классическая литература. -М.: Наука, 1965. С.115-130.
12. Hasanova M. XV asr turkiy she'riyatida qasida janri. Filol.fanlari buyicha fal. d-ri....diss. – Т.:2021. 17-б.
13. Abdullayev I. X asrda Buxoroda yozilgan qasidalar haqida // O'zbek tili va adabiyoti, 1962, №6, 16-23 betlar.
14. Фильштинский М. Арабская классическая литература. -М.: Наука, 1965. С. 30-33.
15. https://ar.wikipedia.org/wiki/%D8%A3%D8%A8%D9%88_%D8%A7%D9%84%D8%B9%D9%84%D8%A7%D8%A1_%D8%A7%D9%84%D9%85%D8%B9%D8%B1%D9%8A
16. <https://islamansiklopedisi.org.tr/ebul-ala-el-maarri>
17. <https://ziyouz.uz/jahon-sheriyati/arab-sheriyati/abul-alo-al-maarriy-973-1057/>
18. Hasanova M. XV asr turkiy she'riyatida qasida janri. Filol.fanlari bo'yicha fal. d....diss. – Т.:2021. 18-б.
19. Ш. Шомухамедов. Форсий шеъриятнинг асосий шакллари. -Т.: ТДШИ, 2004.-С. 8.
20. А.Мирзоев. Рудакий. Жизнь и творчество. -М.: "Наука", ГРВЛ, 1968. С.262
21. М.С. Имомназаров. Мумтоз форс шеърияти бадииятшунослиги ва жанрлар типологияси. -Т., 2015. 68-б.
22. Шомухамедов Ш. Форс-тожик адабиёти тарихидан қисқача курс. Ўқув қўлланма. -Т. 1987. 37-б.
23. М.С. Имомназаров. Мумтоз форс шеърияти бадииятшунослиги ва жанрлар типологияси. -Т., 2015.
24. Рейснер М.Л. Птицы в мистико-символических касыдах Санаи и Хакани (XII в.) (к проблеме становления символического языка в классической персидской касыде). // Исследования по иранской филологии. Выпуск первый. -М., 1997. -С. 121-123.
25. Айний К., Қасида дар осори Рўдаки, //Рўдаки ва замони ў//. – Д.: 1958. С.101-103.

26. Yaşar AYDEMİR. Türk Edebiyatında Kaside.
<https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/234687>
27. Ҳамиджон Ҳомидий. Маърифатни олқишлаб... «Жаҳон адабиёти» журнали, 2019 йил, 2-сон

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali
2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli
guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.
Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog‘lanish uchun telefonlar:
(99) 602-09-84 (telegram).